

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT  
UNIVERSITETI



«TRANSPORT INFRATUZILMASI»

fanining

**O'QUV DASTURI**

(1-kurs kunduzgi, kechki, masofaviy ta'lim shakli uchun)

Bilim sohasi: 1000 000 – Xizmatlar

Ta'lim sohasi: 1010 000 – Xizmat ko'rsatish soxasi

Ta'lim yo'nalishi: 61010400– Logistika (avtomobil transporti)

Urganch – 2025y

Mazkur o'quv dastur Urganch davlat universiteti Kengashining 2025-yil "28" 09 dagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor:  S.U. Xodjaniyazov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:  G.R. Matlatipov

Mazkur o'quv dastur "Texnika" fakulteti Kengashining 2025-yil "27" 08 dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (1-sonli bayonnomasi).

Texnika fakulteti dekani:  M.Q. Qurbanov

Mazkur o'quv dastur "Transport tizimlari" kafedrasining 2025-yil "26" 08 dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan (1-sonli bayonnomasi).

Transport tizimlari kafedrasini mudiri:  S. M. Madaminov

Fan/modul kodi TINFR1104	O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. TRANSPORT INFRATUZILMASI		60	60	120
2. <b>I. Fanning mazmuni</b> Fanni o'qitishdan maqsad: talabalarda transport infratuzilmasi rivojlanishining ham nazariy, ham amaliy tomonlarini, transport infratuzilmasi mintaqa umumiy infratuzilmasining tarkibiy qismi (energetik, ijtimoiy, kommunal va boshqa umumiy infratuzilmani tashkil qiluvchilar kabi) yo'lovchilar va yuklarni tashish xizmatlarini ko'rsatadigan transport tarmoqlari va korxonalarini, murakkab konfiguratsiyaga ega jami makon tarmog'i ko'rinishida shakllanadigan yo'l trassalarini, transport infratuzilmasi ob'ektlarining (ham servis, ham boshqaruvchilik vazifalari bo'yicha) amal qilishini ta'minlovchi korxonalar va tashkilotlar tizimini birlashtirish istiqbollari bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir <i>Fanning vazifasi quyidagilardan iborat:</i> talabalar mintaqa markazida avtomobil yo'llariga bosimni kamaytirishni ta'minlovchi amaldagi va yangi tezyurar yo'llar qurishga kirishish qobiliyatini oshirish. Transport infratuzilmasining samarali amal qilishini ta'minlovchi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiyalash vazifasini hal qilish kabi masalalarni o'rgatishdan iborat.  <i>Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi.</i> Dasturni amalga oshirish bakalavrning o'quv jarayonida o'zlashtirgan ma'lumotlarga, o'quv rejasiga kiritilgan oliy matematika, fizika, kimyo, nazariy mexanika, chizma geometriya va muhandislik grafikasi, materiallar qarshiligi, materialshunoslik, mashinasozlik texnologiyasi, o'zaro almashinuvchanlik, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, gidravlika asoslari va issqlik texnikasi, avtomobil konstruksiyasi, avtomobil nazariyasi kabi fanlarni bilishiga asoslanadi. Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interaktiv usullarda o'zlashtirishni taqazo etadi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtirilgan nazariy bilimlarga hamda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishga qaratiladi. Fanni o'zlashtirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi. Dasturiy materiallarni o'zlashtirish to'rt xil: -muammoli mavzular bo'yicha;				

-mustaqil o'zlashtirish bo'yicha;  
-ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha;  
-munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha seminar va kollokviumlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyogarlik jarayonida talaba texnik adabiyotlar, internet materiallari va me'yoriy hujjatlar bilan ishlay bilishini namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida o'zlashtirgan axborotni to'g'ri mulohaza qilish qobiliyatini ko'rsatishi zarurdir.

**Fanni ishlab chiqarishdagi o'rni** - Transport infratuzilmasining samarali amal qilishini ta'minlovchi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiyalash vazifasini hal qilish kabi masalalarni o'rgatishdan iborat.

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Mavzu. Kirish. Transport infratuzilmasi tushunchasi Fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va o'rganish usullari. Tizimini rivojlantirishdagi asosiy muammolar.
2-Mavzu. Avtomobil transportining harakatlanuvchi tarkibi Harakatlanuvchi tarkibning ekspluatatsion xususiyatlari. Xorijiy davlatlardagi transport turlari.
3-Mavzu. Transport uzellari (Transport uzellari (Multimodal Transportation Planning, Design, and Operations))
4-Mavzu. Logistika markazlari Transport va logistika tizimi. Transport kompleksi. Transport logistikasini rivojlantirish istiqbollari. (Site Development Planning and Design in Transportation)
5-Mavzu. GIS (Geographic Information System — Geografik axborot tizimi) orqali transport infratuzilmasining ijtimoiy va fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish.
6-Mavzu. Yo'lovchi avtovokzallari va avtostansiyalari Avtostansiyalar va avtovokzallar. Shaharda yo'lovchi avtovokzallar va avtostansiyalarning joylashuvi. Harakatlanish jadvalini tuzish. O'zbekiston Respublikasi xududidagi avtostansiyalar va avtovokzallar. (Pedestrian Infrastructure Design)
7-Mavzu. Chegara o'tish joylari O'tkazish punktlarining huquqiy rejimi. Avtomobil chegara o'tish joylari. Temir yo'l chegara o'tish joylari. Dengiz nazorat punktlari. Aviatsiya chegara punktlari. Xorijiy davlatlarning chegara o'tish joylari. O'zbekiston Respublikasi xududidagi nazorat punktlari.
8-Mavzu. Xizmat ko'rsatish markazlari Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni tashkil etish.
9-Mavzu. Avtotransport korxonalari (ATK) ATK tushunchasi va tasnifi. Tashkiliy tuzilmasi. Avtotransport korxonalarining holati.
10-Mavzu. Transport aloqalari Transport kommunikatsiyalari tushunchasi va turlari. Magistral yo'llar. Temir yo'l. Suv yo'llari. Havo yo'llari (aviakompaniyalar). Xorijiy davlatlar avtomobil yo'llarining xususiyatlari.
11-Mavzu. Muhandislik kommunikatsiyalari Muhandislik va transport infratuzilmasi loyihalari. Transport tizimining hozirgi holati. Transport tizimini rivojlantirish dasturi.

12-Mavzu. Transport tizimlari va mobil harakatdagi muammolar

13-Mavzu. Yuk og'irlikni nazorat qilish punktlari  
Statsionar yuk og'irlikni nazorat qilish punktlari. Mobil vaznni nazorat qilish punktlari. Xorijiy davlatlarning yuk og'irlikni nazorat qilish punktlari.

14-Mavzu. Transport vositalarini nazorat qilish punktlari  
Transport vositalarining nazorati tushunchasi va vazifalari. Nazorat punktlarida vizual nazorat. Nazorat punktlarida instrumental nazorat

15-mavzu. Transportni tartibga solish tizimining me'yoriy-huquqiy bazasi infratuzilmasi. Transport infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy jihatlari. Transport infratuzilmasini rivojlantirish muammolari. Transport infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishlari..

### III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada xar bir akademik, guruhga aloxida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

1. Transport Infratuzilmasi bilan bog'liq asosiy tushunchalar. Tizimini rivojlantirishdagi asosiy muammolar. Transport infratuzilmasi bilan bog'liq asosiy tushunchalar.

2. Avtomobil transportining harakatlanuvchi tarkibi.

3. Transport uzellari tushunchasi, tarkibi va tasnifi. Transport uzellarining parametrlarining tavsifi.

4. Transport va logistika tizimi. Transport kompleksi.

5. Transport terminallari.

6. Shaharda yo'lovchi avtovokzallar va avtostansiyalarning joylashuvi. Harakatlanish jadvalini tuzish.

7. Chegara o'tish joylari. O'zbekiston Respublikasi xududidagi nazorat punktlari.

8. Xizmat ko'rsatish markazlari.

9. Avtotransport korxonalari.

10. Transport aloqalari.

11. Muhandislik kommunikatsiyalari.

12. Avtotransport vositalarida ishlatiladigan aloqa tizimlari.

13. Transport infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishlari.

Amaliy mashg'ulotlar tashkillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va bir akademik guruxga bitta professor-o'qituvchi

tomonidan o'tkazilishi zarur.

### IV. Laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish ko'zda tutilmagan.

### V. Mustaqil ta'lim mazmuni

O'qish jarayonida o'qituvchi dasturida keltirilgan barcha mavzular o'qituvchi tomonidan to'liq yoritilmaydi, ayrim mavzular to'g'risida o'qituvchi faqat qisqartirilgan xulosaviy ma'lumotlar beradi va o'qituvchi talabalarga bu mavzularni to'liq o'rganish uchun zarur bo'lgan adabiyotlarni tavsiya etadi. Bundan tashqari ayrim mavzular talabalarga ilmiy yondoshishni taqozo etadi. Bu ko'rinishdagi ishlar talabalarga o'qituvchi nazorati ostida bajariladigan mustaqil ish sifatida tavsiya etiladi.

### Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

### Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Transport infratuzilmasi bilan bog'liq asosiy tushunchalar. Tizimini rivojlantirishdagi asosiy muammolar.

2. Transport vositalari tasnifi

3. Avtomobillarning asosiy texnik-ekspluatatsion xususiyatlari

4. Avtomobilning dinamikligi

5. Maxsus avtomobillar.

6. Tashishni tashkil etishga doir avtomobillarning texnik ekspluatatsion xususiyalari.

7. Avtomobillarning chegaraviy o'lchamlarining harakat xavfsizligiga ta'sirini izohlang.

8. Avtomobil yo'llarini tasniflashini o'rganishdan maqsad

9. Shahar aloqa yo'llari tasnifini keltiring.

10. Yuk va ular tasnifi.

11. Tara va uning xizmati.

12. Yuk hosil etuvchi va qabul qiluvchi punktlar.

13. Ortish-tushirish ishlarini mexanizatsiyalash vositalarini tanlash.

14. Uyib tashiluvchi yuklarni ortish-tushirish ishlarini tashkil etish va

mexanizatsiyalash.
15. Avtotransport vositalarida ishlatiladigan aloqa tizimlari.
16. Harakatlanuvchi tarkibning ekspluatatsion xususiyatlari. Yo'l va iqlim sharoitlariga moslashish.
17. Transport uzellari faoliyatining asosiy xususiyatlari.
18. Transport logistikasini rivojlantirish istiqbollari.
19. Yuklash va tushirish. Yuklarni tashishda terminal va logistika texnologiyasining hozirgi holati va uning rivojlanishi.
20. Yo'lovchi avtovokzallari va avtostansiyalari.
21. Ortish-tushirish mashinalarining unumi.
22. Transport vositalarini nazorat qilish punktlari

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <p>1. Butaev Sh.A., Sidiqnazarov Q., Murodov A., Qo'ziev A.O'. Logistika (etkazib berish zanjirida oqimlarni boshqarish).- T.:Extremum-Press, 2012.-577 b.</p> <p>2. Wynand JvdM Steyn, Zhixin Wang, Glynn Holleran." Transportation Infrastructure Engineering, Materials, Behavior and Performance" Nanchang, China. 2021</p> <p>3. Azizov K.X. Harakat xafsizliginiini tashkil etish asoslari.- T.:Fan va texnologiyalar, 2009.- 244 b.</p> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <p>1. G.A.Samatov, Yo.K.Karrieva, B.B.Payziev. Raqobat muhitida xalqaro transport tizimi faoliyatining logistik ishonchliligi. T.: TDAU nashr tahririyati, 2003, 81 b.</p> <p>2. Bauersoks Donald DJ., Klass Deyvid Dj. Logistika: integririvannaya sep postavok. - M.: Olimp-Biznes, 2001, 640 s.</p> <p><b>Axborot manbalari</b></p> <p>1. <a href="http://www.ziyo.net">htt.www.ziyo.net</a></p> <p>2. <a href="http://www.zivo.uz">www.zivo.uz</a></p> <p>3. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a></p>	
	7	<p>Fanning o'quv dasturi Urganch davlat universiteti Kengashning 2025 yil <u>20.08</u> 1 - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p>
	8	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b></p> <p>Yuldasheva M.A. – UrDU “Transport tizimlari” kafedrasini o'qituvchisi.</p> <p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>B. Sabirov - UrDU “Transport tizimlari” kafedrasini prof., t.f.n.</p> <p>I. Ruziyev – UrDU “Transport tizimlari” kafedrasini prof., t.f.n.</p>